

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi | 6 |
| Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor | |
| O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi..... | 11 |
| Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi | |
| "Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari..... | 18 |
| Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant | |
| Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha | |
| asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash..... | 24 |
| Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD | |
| O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini | |
| jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish..... | 27 |
| Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD | |
| Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi | 34 |
| Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent | |
| Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari..... | 39 |
| Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi | |
| Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar..... | 44 |
| Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi | |
| Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va | |
| innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili..... | 50 |
| Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant | |
| Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati | 56 |
| G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi | |
| Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish | 61 |
| Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi | |
| Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli..... | 65 |
| Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant | |
| Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar | 71 |
| Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD) | |
| Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций | 78 |
| Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь | |
| Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий..... | 83 |
| Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант | |
| Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali | |
| foydalanish zarurati..... | 89 |
| Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi | |
| Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni | 94 |
| Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi | |
| Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari..... | 99 |
| Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi | |
| "Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining | |
| innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari..... | 103 |
| Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent | |
| Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan | |
| erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi..... | 108 |
| Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant | |
| Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar | 114 |
| Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va | |
| monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari | 119 |
| Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi | |
| Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country | 125 |
| Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; | |
| Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher | |



| | |
|--|-----|
| Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari..... | 129 |
| Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi | |
| Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution | 133 |
| Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li | |
| Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili | 138 |
| Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant | |
| Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish..... | 144 |
| Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant | |
| Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida | 151 |
| Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi | |
| Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны | 156 |
| Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант | |
| Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози | 161 |
| Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi | |
| Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni..... | 169 |
| G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant | |
| Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане | 174 |
| Жуманиязова Феруза , PhD, доцент | |
| Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari..... | 179 |
| Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD | |
| Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari..... | 184 |
| Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD) | |
| Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni..... | 190 |
| Nilufar Sharipova , PhD | |
| Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar | 197 |
| Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent | |
| Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari..... | 201 |
| O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant | |
| Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi | 208 |
| Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD | |
| Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие..... | 212 |
| Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь | |
| IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari | 216 |
| Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD | |
| Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения | 222 |
| Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi | |
| Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari | 227 |
| Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish | 231 |
| Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili..... | 238 |
| Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD | |
| Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана | 243 |
| Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант | |
| Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish | 249 |
| Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD | |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni | 254 |
| Xojoyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant | |
| Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики | 259 |
| Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент | |
| Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati | 264 |
| Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD | |
| Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari..... | 268 |
| Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD) | |



| | |
|--|-----|
| O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari..... | 272 |
| Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent | |
| Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya..... | 277 |
| Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel' | |
| Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish..... | 282 |
| Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant | |
| Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish..... | 290 |
| N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant | |
| Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili..... | 293 |
| Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD | |
| Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili..... | 298 |
| Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant | |
| Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka..... | 304 |
| Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry | |
| Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari | 310 |
| G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi | |
| Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari..... | 315 |
| Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant | |
| Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish..... | 320 |
| Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent | |
| Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari..... | 327 |
| Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant | |
| Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli | 330 |
| Norov Akbar Ruzimamatovich | |
| Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi | 335 |
| Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n. | |
| Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba | 341 |
| N.N.Ro'ziyev | |
| O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish..... | 350 |
| Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi | |
| Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies..... | 356 |
| Nosirova Charos | |
| MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari | 364 |
| Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant | |
| Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari | 369 |
| Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi | |
| Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili | 374 |
| Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi | |
| Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala | 380 |
| Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant | |
| Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami | 386 |
| Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry | |
| Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili | 396 |
| S.T.Toshaliyeva , PhD | |
| Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida..... | 403 |
| Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi | |
| Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida..... | 407 |
| Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi | |
| Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish | 412 |
| Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD | |
| Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish..... | 416 |
| Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent | |
| Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar..... | 421 |
| M.A.Saparova , talaba | |



SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR

Axmedov Sayfullo Normatovich

t. f. n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini makrodarajada baholash bo'yicha yondashuvlar ko'rib o'tilgan. O'zbekistonda suv resurslarining notekis taqsimlanishi sharoitida xudularda ulardan foydalanish holatini tahlil qilingan. Taiponing olmos ajralish modeli (Tapio Decoupling Diamond model) asosida Respublika hududlari bo'yicha 2010–2021-yillar hamda 2015–2021-yillarda suv resusrslarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri baholangan. Baholash natijalari asosida xudularda suv resurslaridan oqilona foydalanish va samaradorligini aniqlash bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: suv, xudular, suv resurslaridan oqilona foydalanish, samaradorlik, samaradorligini aniqlash uslubi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены подходы к оценке эффективности использования водных ресурсов на макроуровне. В условиях неравномерного распределения водных ресурсов Узбекистана проанализирована ситуация их использования в регионах. На основе модели Tapio Decoupling Diamond оценено влияние водных ресурсов на экономическое развитие Республики Казахстан в 2010–2021 и 2015–2021 годах. По результатам оценки были внесены предложения по определению рационального использования и эффективности водных ресурсов в районах.

Ключевые слова: вода, водные ресурсы, рациональное использование водных ресурсов, эффективность, метод определения эффективности.

Abstract: In this article, approaches to evaluating the efficiency of water resources use at the macro level are considered. In the conditions of uneven distribution of water resources in Uzbekistan, the situation of their use in regions was analyzed. Based on the Tapio Decoupling Diamond model, the impact of water resources on economic development was assessed in the Republic of Kazakhstan in 2010–2021 and 2015–2021. Based on the results of the assessment, proposals were made to determine the rational use and efficiency of water resources in the districts.

Key words: water, water resources, rational use of water resources, efficiency, method of determining efficiency.

KIRISH

Suv hayotning barcha jabhalari uchun zaruriy vositadir. Insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, shuningdek, ekotizimlarning yaxlitligi va saqlanib qolishi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy resurs hisoblanadi. Suv ijtimoiy-itqisodiy jarayonlarda ishlab chiqarish va iste'mol bilan bog'liq faoliyat uchun birlamchi moddiy resurs sifatida qaraladi. Shuning uchun barcha mamlakatlarda suv resusrslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiy islohotlarining doimo markaziy o'rnidagi turadi.

O'zbekistonda ham suv resusrslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligi va sanoatda suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalari davlatning ustuvor siyosati sifatida qaraladi.

Suv resusrslarini samarali boshqarish, ularning hisobi va hisobotini zamonaviy texnologiyalar asosida yuritishning bozor mexanimzlaridan foydalanish ham ustuvor vazifalardan biridir. Shunga ko'ra, suv resusrslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini makrodarajada kompleks baholash usullarini ishlab chiqish ustuvor tadqiqot yo'naliishlaridan hisoblanadi.



ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyo miqyosida suv resusrlarining ko'pligiga hamda va bu resursning asosan qayta tiklanadigan xususiyatiga qaramasdan, dunyo aholisining beshdan bir qismi suv tanqisligi sharoitida yashaydi.¹ Bu, birinchi navbatda, chuchuk suvning makon va vaqt bo'yicha noteks taqsimlanishi natijasidir, bu iqtisodiy nomutносiblik, tartibsizliklari va muvaffaqiyatsizliklarning asosiy xarkatga keltiruvchi omil hisoblanadi. Shunga ko'ra suv resusrlaridan fsamarali foydalanish va ularni hisobini yuritishda ko'plab yondashuvlar shakllangan.²

Xalqaro amlaiyotda suv resusrlarini samarali boshqarish bo'yicha asosiy yondashuvlar Suv resurslari kompleks boshqarish (Integrated water resources management- IWRM) konsepsiysi asosida amalga oshiriladi. 3 Mazkur konsepsiya suv aylanishini barcha tabiiy jihatlari bilan, shuningdek, jamiyatning (yoki butun mintaqaning) turli tarmoqlaridagi suvdan foydalanuvchilarning manfaatlarini tan oladi; shuning uchun u suvning ham tabiiy, ham insoniy o'lchamlariga murojaat qiladi. Suv mavjudligining geografik o'zgarishi va yuqori va quyi oqimdagi mumkin bo'lgan o'zaro ta'sirlar nuqtayi nazaridan davriy o'lchovlarni, shuningdek, suv mavjudligining tabiiy mavsumiy, yillik va uzoq muddatli tebranishlari kabi vaqt shkalalarini hisobga olishga alohida o'lchov vositalarini taqdim etadi.^{4, 5, 6}

Suv resusrlarining ekologik-iqtisodiy hisobi tizimi (System of Environmental- Economic Accounting for Water – (SEEA-Water) gidrologik va iqtisodiy axborotni izchil va tashkil etishning konseptual asosini ta'minlaydi. "SEEA-Water" milliy hisoblar qo'llanmasini Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan 2003-yilda integratsiyalashgan ekologik va iqtisodiy hisob yuritishning normalarini belgilab beruvchi asosiy qo'llanma hisoblanadi.⁷ Uning qisqartirilgan nomi "SEEA–2003" bilan mashhur bo'lib, u iqtisodiyot va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tavsiflaydi va tabiiy omillarning to'liq spektrini qamrab oladi. Bu iqtisodiy statistikani tuzish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashning standart tizimi hisoblanadi.

Mazkur hisob tizimi suv resusrlarini hisobga olish va suv resusrlaridan foydalanishni standartlashtirish uchun ishlab chiqilgan. U suv resusrlarining iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini, shuningdek, iqtisodiyotning suv resusrlariga ta'sirini izchil tahlil qilish imkonini beruvchi iqtisodiy va gidrologik axborotni tashkil etishning konseptual asosini taqdim etadi. SEEA-Water suv resusrlari bilan bog'liq barcha jihatlarni yaxshiroq qamrab olish uchun SEEA–2003 da taqdim etilgan asosni yanada rivojlantirish natijasidir.⁸

Suv resusrlaridan foydalanishni kompleks iqtisodiy baholash va uni samarali boshqarish bo'yicha ko'plab xorijiy olimlar tadqiqot olib borgan bo'lib, So'nggi tundensiyalar ekomuxit bilan bog'liq tadqiqotlar ko'laming kengligi bilan harakterlanadi. Jumladan, Xiaojun Xiang va boshqarlar⁹ tadqiqotlarida barqaror suv resusrlarini boshqarish yer hayoti va kelajagini ta'minlashning muhim jarayon ekanligi ta'kidlangan. Unda Suv resusrlarini rejalashtirishning dinamik modeli (Dynamic Water Resource Planning – AIDWRP) taklif etiladi. Mazkur model suv resusrlarini taqsimlashning muniv intellekstga asoslangan boshqaruviga asoslanadi.

Zhaoyang Yang va boshqalarning¹⁰ tadqiqotlarida esa, suv resusrlarining o'tkazish qobiliyati (water resources carrying capacity-WRCC) konsepsiysi bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotda analitik ierarxiya jarayoni (analytic hierarchy process-AHP) va tizim dinamikasi (SD) modellari asosida suv resusrlarining o'tkazish qobiliyatining sumulyatsiya modeli yaratilgan. Mazkur simulyatsiya modeli asosida suv resusrlarini mamalaka hududlari bo'yicha samarali taqsimlash bo'yicha 5 ta seynaridagi variantlar taklif etiladi.

Ciriacy-Wantrup S. V. Va boshqalar¹¹ tadqiqotlarida suv resusrlaridan foydalanishni baholashda ikkita yondashuv taklif etiladi. Birinchidan, ruv resusrlaridan foydalanish orqali ko'rildigan foyda-xarajat tahlilining turli

-
- 1 <https://www.fao.org/land-water/en/>
 - 2 Hering J. G., Ingold K. M. Water resources management: what should be integrated? //Science. – 2012. – Т. 336. – №. 6086. – С. 1234–1235.
 - 3 Agarwal A. et al. Integrated water resources management. – Stockholm : Global water partnership, 2000. – С. 1–67.
 - 4 Savenije H. H. G., Van der Zaag P. Integrated water resources management: Concepts and issues //Physics and Chemistry of the Earth, Parts A/B/C. – 2008. – Т. 33. – №. 5. – С. 290–297.
 - 5 Rahaman M. M., Varis O. Integrated water resources management: evolution, prospects and future challenges //Sustainability: science, practice and policy. – 2005. – Т. 1. – №. 1. – С. 15–21.
 - 6 Biswas A. K. Integrated water resources management: a reassessment: a water forum contribution //Water international. – 2004. – Т. 29. – №. 2. – С. 248–256.
 - 7 Организация Объединенных Наций, Руководство по национальным счетам: комплексный экологический и экономический учет, 2003 год, Серия Ф, № 78, Рев. 1 [издание Организации Объединенных Наций, в продаже под № Э 00. ХВИИ. 17 (далее по тексту – Руководство по национальным счетам), на англ. языке]
 - 8 <https://seea.un.org/content/seea-water-0#:~:text=The%20System%20of%20Environmental%2DEconomic,is%20entirely%20consistent%20with%20it>.
 - 9 Xiang X. et al. Urban water resource management for sustainable environment planning using artificial intelligence techniques // Environmental Impact Assessment Review. – 2021. – Т. 86. – С. 106515.
 - 10 Yang Z. et al. Comprehensive evaluation and scenario simulation for the water resources carrying capacity in Xi'an city, China // Journal of environmental management. – 2019. – Т. 230. – С. 221–233.
 - 11 Ciriacy-Wantrup S. V., Bishop R. C., Andersen S. O. Water policy and economic optimizing: Some conceptual problems in water research //Natural Resource Economics. – Routledge, 2019. – С. 67–76.



xil hisoblash texnikasi orqali. Ikkinci yondashuv suv resurslarini belgilangan me'yorlarini o'rnatish va ularga nisbatan faqr va chetlanishlarni aniqlash asosida.

Rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor hududlarda suv resurslaridan oqilona foy-dalanishga qaratilgan tadqiqotlarga ahamiyat keng qaratilgan. Juladan, V. Fomina¹² tadqiqotlarida Rosiyaning Shimoliy-G'arbiy Federal okrugi hududlarida ishlab chiqarilgan mahsulotning suv sig'imi va suvni yo'qtishning o'ziga xos ko'rsatkichlari bo'yicha suvdan foydalanish xususiyatlari aniqlangan. Mazkur maqolada hududlarida suvdan foydalanish samaradorligini baholash orqali suv resurslarini tejamkorligiga erishishining hududiy strategiyasi taklif etilgan. Undagi asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar tahlil qilinadi: (ishlab chiqarishda chuchuk va qayta ishlangan suvdan foydalanish darajasi, maishiy va ichimlik ehtiyojlari uchun suvning solishtirma iste'moli, suv yo'qtishlari, oqava suvlar miqdori va ifloslanish darajasi bo'yicha ularning tarkibi va boshqalar).

J. T. Sivoxip, V. M. Pavleychik¹³ tadqimqotlari esa suv resurslari holatini baholash suv resurslari hajmini foydalanilayotgan suv hajmi, viloyat-maydoni va aholi soni bilan taqqoslash asosida amalga oshirilgan. Haqiqiy suv ta'minotini hisoblashda yilning qurg'oqchilik davridagi o'rtacha yillik suv resurslari, qaytarib bo'lmaydigan suv iste'moli va aholi sonining nisbati asosida aniqlangan.

O'zbekistonlik olimlar ham suv resusrlaridan oqilono foydalanish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, suvdan foydalanish bo'yicha optimal qarorlar qabul qilish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqishning yangi nazariy asoslari Sultonov A. O.¹⁴ tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Kutlimurodov U. M.¹⁵ tadqiqotlarida esa iste'molchilar tomonidan energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalanayotgan suvning aniq hisobini yuritish bo'yicha metodologik yondashuvlar taklif etilgan.

Prenov A. B.¹⁶ tadqiqotlarida Suvdan foydalanuvchilar va suv xo'jaligi tizimida mulkiy nomutanosibliklarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanimzları ko'rib chiqilgan. L. Amirov¹⁷ tadqiqotlarida esa, tejovchi texnologiyalarni joriy etgan suv iste'molchilar uchun rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish va tuman hokimliklari tomonidan suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy qiladigan tashabbuskor fermer xo'jaliklariga amaliy yordam ko'rsatish mexanizmlari taklif etilgan.

Umuman olganda O'zbekiston olimlari tomonidan suv resusrlaridan foydalanish samaradorligi baholashga bo'lgan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar ko'lami past. Shunga ko'ra mazur yo'nalishdagi tadqiqotlarni ishlab chiqish muhim yo'nalish hisoblanadi.

METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv resusrlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 1-apreldagi PQ-107-son qarori qabul qilingan. Qarorga ko'ra, 2023-yil avgustgacha 2022-yilda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan hamda subsidiya mablag'larining 50 foizini olgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga tizimlarning ishlatalishiga qarab belgilangan subsidiya miqdorining qolgan 50 foizi tuman ishchi guruhi xulosasi asosida ajratilishi belgilangan. Biroq, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilib undan ko'rildigan iqtisodiy samarani hisoblash, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan suv sarfi meyorlarini ishlab chiqish kabi masalalar bo'yicha aniq metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish lozim. O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini iqtisodiy baholash mezonlarini qo'llashni modellashtirish dasturi ishlab chiqish bo'yicha ham bir qator loyihalari amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilar bilan birga, suv sarfi normalarini makrodarajada baholash va hududularni tarmoq va sohalari uchun sarflanayotgan suv resusrlarini samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash mutodkalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Masalan, Rossiya Federatsiyasida mamlakatning innovatsion rivojlanishining suv resusrlari komponenti integral ko'rsatkich – yalpi ichki mahsulotning (YalIM) suv intensivligi bilan baholash orqali suv resusrlaridan foydalanish strategiyalarini qabul qilganlar.¹⁸

12 Фомина Валентина Фёдоровна Эффективность использования водных ресурсов в регионах Северо-Западного федерального округа в свете Водной стратегии // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2010. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnost-ispolzovaniya-vodnyh-resursov-v-regionah-severo-zapadnogo-federalnogo-okruga-v-svete-vodnoy-strategii> (дата обращения: 26. 08. 2023).

13 Сивохил Жанна Тарасовна, Павлейчик Владимир Михайлович. Современное состояние и использование водных ресурсов трансграничных рек степной зоны // ВХР. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoe-sostoyanie-i-ispolzovanie-vodnyh-resursov-transgranichnyh-rek-stepnoy-zony> (дата обращения: 26. 08. 2023)

14 Султонов А. О. Применения информационных систем по использования водных ресурсов в Узбекистане //Научные исследования-основа современной инновационной системы. Международной научно-практической конференции Стерлитамак. – 2019. – С. 141–144.

15 Кутлимуродов У. М. Решения для эффективного использования водных ресурсов в регионах Республики Узбекистан //Символ науки. – 2021. – №. 3. – С. 14–17.

16 Prenov A. B. Yer-suv resusrlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2014. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/er-suv-resusrlaridan-samarali-foydalanishning-tashkiliy-i-tisodiy-asoslari> (data obrasheniya: 26. 08. 2023).

17 Amirov L. F. O'zbekiston respublikasida suv resusrlaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalı. № 1,-yanvar-fevral, 2017-yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/5_L_Amirov.pdf

18 Фомина В. Ф. Эффективность использования водных ресурсов в регионах Северо-Западного федерального округа в свете Водной стратегии //Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2010. – Т. 11. – №. 3. – С. 75–89.



Fikrimizcha hududlarning suvdan foydalanish darajasini baholash uchun jahon va mahalliy amaliyotda keng qo'llaniladigan suv bilan ta'minlanganlik mezonlari va suvdan foydalanish samaradorligi mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Suv mavjudligining eng muhim mezonlardan biri suvning qayta tiklanadigan manbalardagi ulushi sifatida belgilangan suv stressi indeksidir. Ushbu ko'rsatkichning qiymatiga asoslanib, Jhon Resurs Instituti quyidagi shartlar asosida suv ta'sirini tasniflaydi:

- <10% – past stress darajasi;
- 10–20% – past va o'rta stress;
- 20–40% – o'rta va yuqori stress;
- 40–80% – og'ir stress;
- >80% – juda yuqori stress.¹⁹

BMTning ustuvor rivojlanish dasturi doirasida hozirda 6. 4. 2 ko'rsatkichini ishlab chiqilgan. Bunda suv resurslariga bosim darajasi: mavjud chuchuk suv manba'lardan chuchuk suv olish darajasi va uni qayta ishlash (tozalash) indekslari asosiy baholash me'zonlari sifatida kiritilgan. Ushbu ko'rsatkichning global hisobi metodologiya²⁰ asosida amalga oshiriladi, unga ko'ra suv ekotizimlarini saqlash uchun zarur bo'lgan atrof-muhit oqimini hisobga olgan holda suv stressi mezoni baholanadi.

Suvdan foydalanish samaradorligini baholashning makroiqtisodiy tahlil qilishda esa So'nggi yillarda "Decoupling Diamond model"dan foydalanish ko'payib bormoqda. Bunda, suvdan foydalanish samaradorligi mezonlari sifatida ikkita ko'rsatkich tanlanadi. Birinchisi, suv resurslarining foydalanish samaradorligi YHM qiymatining suv olish hajmiga (ming so'm/m^3) nisbati sifatida aniqlanadi. Ikkinchisi, foydalanish intensivligi (YaXMga nisbatan suvdan foydalanish intensivligi) – samaradorlikni o'zaro nisbati elastiklik koeffitsiyentlari asosida aniqlanadi.

Global va mintaqaviy baholashlar uchun umumlashtirish formulaning turli o'zgaruvchilari qiymatlarini, ya'ni tarmoqlar bo'yicha qo'shilgan qiymatni va suvdan foydalanishni darajalarini aniqlash, suv sarfi darajasini o'sishi yoki kamayishi kabilardan foydalanish tavsiya etiladi.

Taqsimot tizimida o'zgaruvchilarni joylashtirish uchun sakkizta mantiqiy imkoniyat mavjud. Bunda viloyatlardagi suv sarfi hajmi yer (ΔER), mln. m^3 va YIM (ΔYIM) o'zgarish sur'atlari birlashtirilgan, ajratilgan yoki manfiy ajratilgan bo'lishi mumkin. Iqtisodiy o'sish natijasida suv sarfi hajmining o'sishi foizlarda ifodalanadi va va ma'lum vaqt oralig'ida YIMning foiz birlik o'zgarishiga elastikligi asosida hisoblanadi. Elastiklik koeffitsiyenti "e" quyidagi formula asosida hisoblanadi(1. 1.):

$$e = \% \Delta ER / \% \Delta YIM \quad (1. 1.)$$

Bu yerda;

e – elastiklik koeffitsiyenti;

ER – iqtisodiyot sohalarida suvning ishlatalishi hajmining o'sish suratlari, %;

YIM – Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining o'sish suratlari, foizda;

O'rganilayotgan vaqt davri qanchalik ko'p bo'lsa, natijalar shunchalik ishchonchli bo'ladi. 21 Ushbu tadqiqotda suv resurslaridan foydalanish va ularni hududiy rivojlanishga ta'sirini o'rganish uchun uzoq davr 2010–2021-yillar hamda qisqa davr 2015–2021-yillar bo'yicha aniqlash maqsadga muvofiq. Bu uzoq va yaqin vaqt davomida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini taqqoslash imkoniyatini beradi.

Elastiklik koeffitsiyenti 1;0 atrofida $\pm 20\%$ o'zgarishi bog'lanish deb hisoblanadi, bu sabab-oqibat bog'lanishning paydo bo'lishiha olib keladi. 0,8 dan 1,2 gacha bo'lgan elastiklik qiymatlari kritik qiymat sifatida kiritiladi.

Mazkur model uchun O'zbekiston Respublikasi hududiy suv resurslaridan foydalanish darajasi va YaXM bo'yicha barcha viloyatlar uchun 2010–2022-yillardagi ma'lumotlardan foydalaniladi va tegishli kordinatalar o'qiga joylashtiriladi va tendensiyalar o'rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston respublikasida 2021-yilda olinayotgan yillik suv miqdorining taqsimlanishida hududiy kenglik jihatlar inobatga olinmagan. Jumladan, 2021-yilda jami olingan suv miqdorining (43661,6 mln. m^3) 12,4 foizi

19 Ritchie H., Roser M. Water use and stress // Our World in Data. 2017. URL: <https://ourworldindata.org/water-use-stress> (data obrasheniya: 10. 01. 2023).

20 Progress on Level of Water Stress: Global status and acceleration needs for SDG Indicator 6. 4. 2. FAO, UN Water. Rome, 2021. 95 p. <https://doi.org/10.4060/cb6241en>

21 Tapiro, P. (2005) 'Towards a theory of decoupling: degrees of decoupling in the EU and the case of road traffic in Finland between 1970 and 2001', Transport Policy, vol. 35, pp. 137–151.



Qoraqolpag'iston Respublikasigi, 10. 9 foizi Toshkent viloyati hamda 10,5 foizi Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Biroq qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yorlarga mos bo'lган proportional taqsimot mavjud emas. Masalan, vodiy viloyatlarda olinayotgan suv miqdori jami respublikaga nisbatan 2021-yilda 19,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, sug'oriladigan yerlarning 17,3 foizi ushbu viloyatlar hissasidir. Biroq vodiy viloyatlari hisoblagan Andjon, Farg'ona va Namangan viloyatlarda jami qishloq xo'daligi mahsulotlarining 27,5 foizi yetishtirilmoqda. Har bir gektar yerga sarflanayotgan suv miqdori bo'yicha eng yuqori pog'onalarda Buxora (12,6 ming m³/ga), Sirdaryo (12,2 ming m³/ga) va Xorazm (12,6 m³/ga) viloyatlardir.

Decoupling Diamond modeli asosida 2010–2021-yillarda suvdan foydalanish intensivligini baholash natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, barcha viloyatlarda YaXMning o'sish suratlari 0 dan katta va respublika bo'yicha YaMning 2010–2021-yillardagi o'rtacha o'sishi 6,11 foizni tashkil etgan. Suvning ishlatilishi hajmlari yuqori o'sish ko'rsatkichida, jumladan, suvning ishlatilishi hajmi respublika bo'yicha o'rtacha o'sish 1,71 foizni tashkil etgan. Qoraqolpag'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarda eng yuqori o'sish kuzatilgan. Umuman olganda barcha viloyatlarda ΔYIM(YHM)ning o'rtacha o'sishi 0 dan katta va suvni ishlatish hajmlarining o'sishi ΔEP ham 0 dan katta. Shunga ko'ra, Decoupling Diamond modeliga mos keluvchi me'zonlardan Samarqand viloyatidan tashqari barcha hududlar kordinatalar o'qining "zaif ajralish"ga mos keluvchi hududga joylashgan. Samarqand viloyati esa "zaif salbiy ajratish" kritik me'zoniga mos hudud sifatida joy olgan.

"Zaif ajralish- Weak decoupling" me'zoniga ko'ra YIM va suv sarfi darajasi ham ortib borish tendensiyasiga ega bo'ladi, biroq suv sarfiga nisbatan YIM hajmi tezroq o'sishi kuzatiladi. Mazkur holat barcha viloyatlarda suv sarfining moyoriy darajasi hududiy rivojlanishga monand ravishda o'sayotganligini anglatadi. Bunday holat 2010–2021-yillardagi kuzatuvlar natijalaridan kelib chiqqanda O'zbekistonda suv sarfining moyoriy rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur holat O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi sifatida qaralishi lozim.

Samarqand viloyati "zaif salbiy ajratish" kritik nuqtasiga mos kelgan. Mazkur holatda ham suv sarfi va YaIM (YaXM) hajmi ortadi. Biroq suv sarflash darajasi YIM (YaXM)ga nisbatan tezroq ortadi. Bu yerda, $e > 1,2$. Kuchli salbiy ta'sir hisoblanadi va bu natija YaXMning rivojlanish darajasiga nisbatan suv sarfining yuqoriroq o'sishini anglatadi.

Biroq Navoiy va Sirdaryo viloyatlari "kuchli ajralish" kritik nuqtasiga joylashgan. "Kuchli ajralish" kritik nuqtasida suv sarfining YaMga nisbatan sekinroq o'sishi kuzatiladi. Mazkur holatlar YaM hajmini ortishiga suv sarfini kamayib borishini aks ettiruvchi kritik nuqta hisoblanadi. Bunday natija qisqa davrda Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarda amalga oshirilayotgan suv tejovchi texnologiyalardan samarali foydalanayotganligi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Suv iste'moli va suvdan foydalanishning makrodarajadagi tahlillariga asoslanib, biz ko'rib chiqayotgan davrlarda suvdan foydalanishning iqtisodiy o'sishgata'sirini barcha viloyatlar uchun aniqlandi. 2010–2021-yillardagi suvdan foydalanish darajasi O'zbekiston respublikasining barcha hududlarida YaXM o'sishiga yuqori bog'liqlikni aks ettirdi va buning asosiy natijasida hududlarda qishloq xo'jalik tarmog'ining ulushi yuqori ekanligi hisoblanadi. Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, suv iste'moli bilan sinxron ravishda o'zgarib turadi, bu munosabatlarning tabiatida namoyon bo'ladi.

Agar suv resurslaridan foydalanish samaradorligi har bir hudud bo'yicha aniq hisob-kitoblar qilinsa, hududarning raqobatda ustun bo'lgan mahsulot va xizmat turlarini aniqlash va suv sarfi yuqori bo'lgan tarmoqlarni qayta joylashtirish bo'yicha aniq yo'nalishlarni belgilab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda barcha viloyatlar bugungi kunda o'zlarining suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan aniq strategiyasining mavjud bo'lishi, mazkur strategik maqsadlar umumiyligidan chetlangan holda xususiylikka qarab belgilansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini har bir tarmoq yoki sohalar uchun aniq xulosalar berolmasada, respublika viloyatlari, shaxar va tumanlarida suv sarfi moyorlarini o'rnatish imkoniyatini yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.fao.org/land-water/en/>
2. Hering J. G., Ingold K. M. Water resources management: what should be integrated? //Science. – 2012. – T. 336. – №. 6086. – S. 1234–1235.
3. Agarwal A. et al. Integrated water resources management. – Stockholm : Global water partnership, 2000. – S. 1–67.
4. Savenije H. H. G., Van der Zaag P. Integrated water resources management: Concepts and issues //Physics and Chemistry of the Earth, Parts A/B/C. – 2008. – T. 33. – №. 5. – S. 290–297.
5. Rahaman M. M., Varis O. Integrated water resources management: evolution, prospects and future challenges // Sustainability: science, practice and policy. – 2005. – T. 1. – №. 1. – S. 15–21.



6. Biswas A. K. Integrated water resources management: a reassessment: a water forum contribution //Water international. – 2004. – Т. 29. – №. 2. – S. 248–256.
7. Организация Объединенных Наций, Руководство по национальным счетам: комплексный экологический и экономический учет, 2003 год, Серия Ф, № 78, Рев. 1 [издание Организации Объединенных Наций, в продаже под № Э 00. ХВИИ. 17 (далее по тексту – Руководство по национальным счетам), на англ. языке]
8. <https://seea.un.org/content/seea-water-0#:~:text=The%20System%20of%20Environmental%2DEconomic,is%20entirely%20consistent%20with%20it>.
9. Xiang X. et al. Urban water resource management for sustainable environment planning using artificial intelligence techniques //Environmental Impact Assessment Review. – 2021. – Т. 86. – S. 106515.
10. Yang Z. et al. Comprehensive evaluation and scenario simulation for the water resources carrying capacity in Xi'an city, China //Journal of environmental management. – 2019. – Т. 230. – S. 221–233.
11. Ciriacy-Wanrup S. V., Bishop R. C., Andersen S. O. Water policy and economic optimizing: Some conceptual problems in water research //Natural Resource Economics. – Routledge, 2019. – S. 67–76.
12. Фомина Валентина Фёдоровна Эффективность использования водных ресурсов в регионах Северо-Западного федерального округа в свете Водной стратегии // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2010. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnost-ispolzovaniya-vodnyh-resursov-v-regionah-severo-zapadnogo-federalnogo-okruga-v-svete-vodnoy-strategii>.
13. Сивохил Жанна Тарасовна, Павлейчик Владимир Михайлович. Современное состояние и использование водных ресурсов трансграничных рек степной зоны // ВХР. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoe-sostoyanie-i-ispolzovanie-vodnyh-resursov-transgranichnyh-rek-stepnoy-zony>.
14. Султонов А. О. Применения информационных систем по использования водных ресурсов в Узбекистане // Научные исследования-основа современной инновационной системы. Международной научно-практической конференции Стерлитамак. – 2019. – С. 141–144.
15. Кутлимуровод У. М. Решения для эффективного использования водных ресурсов в регионах Республики Узбекистан //Символ науки. – 2021. – №. 3. – С. 14–17.
16. Prenov A. B. Yer-suv resurslaridan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2014. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/er-suv-resurslaridan-samarali-foydalanishning-tashkiliy-i-tisodiy-asoslari> (data obrasheniya: 26. 08. 2023).
17. Amirov L. F. O'zbekiston respublikasida suv resurslaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1,-yanvar-fevral, 2017-yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/5_L_Amirov.pdf
18. Фомина В. Ф. Эффективность использования водных ресурсов в регионах Северо-Западного федерального округа в свете Водной стратегии //Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2010. – Т. 11. – №. 3. – С. 75–89.
19. Ritchie H., Roser M. Water use and stress // Our World in Data. 2017. URL: <https://ourworldindata.org/water-use-stress> (data obrasheniya: 10. 01. 2023).
20. Progress on Level of Water Stress: Global status and acceleration needs for SDG Indicator 6. 4. 2. FAO, UN Water. Rome, 2021. 95 p. <https://doi.org/10.4060/cb6241en>
21. Finel N., Tapio P. Decoupling transport CO2 from GDP / Finland Futures Research Centre. FFRC eBOOK1/2012. 42 p. URL: <https://urn.fi/URN:NBN:fi-fe2019052116441> (data obrasheniya: 12. 04. 2021)
22. Fomina V. F. Identifying the effect of decoupling in major economic sectors of the Komi Republic // Economic and Social Changes: Facts, Trends, Forecast. 2022. Vol. 15, issue 1. P. 176–193. <https://doi.org/10.15838/esc.2022.1.79.9>
23. Tapio, P. (2005) 'Towards a theory of decoupling: degrees of decoupling in the EU and the case of road traffic in Finland between 1970 and 2001', Transport Policy, vol. 35, pp. 137–151.
24. Fomina V. F. Identifying the Effect of Decoupling in Major Economic Sectors of the Komi Republic //Ekonomicheskiei Sotsialnye Peremeny. – 2022. – Т. 15. – №. 1. – S. 176–193.
25. Jiang R., Zhou Y., Li R. Moving to a low-carbon economy in China: Decoupling and decomposition analysis of emission and economy from a sector perspective //Sustainability. – 2018. – Т. 10. – №. 4. – S. 978.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

